



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish» kafedrası
5410300 – O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi bakalavriat bitiruvchisi*

Meliboeva Nasiba Tohirjonovna

MALAKAVIY BITIRUV Ishi

Chuchuk qalampir kasalliklari va ularga qarshi kurash tadbirlari.



Ilmiy rahbar, assistent _____ X.Xursanov

*Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish kafedrası yig'ilishida muhokama qilindi va DAK himoyasiga tavsiya yetildi. Kafedra mudiri, professor _____ F.H.Xoshimov
« ____ » _____ 2016 yil
Bayonnoma № _____*

Agronomiya fakulteti dekani, dotsent

_____ D.S.Normurodov

« ____ » _____ 2016 y

SAMARQAND-2016

«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish»
kafedrasining _____ - sonli majlis

B A Y O N I D A N K O ‘ C H I R M A

«__»_may_ 2016 yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: F.Hoshimov – kafedra mudiri, professor, P.Uzoqov – kafedra professori, M.Hayitov – kafedra dotsenti, B.Abdullaev - kafedra dotsenti, T.Ortiqov - kafedra dotsenti, E. Umurzoqov - q.x.f.doktori, S.Ahmedov - kafedra katta o‘qituvchisi, N.Nishonov-kafedra katta o‘qituvchisi, O.Nazarov – kafedra katta o‘qituvchisi, M.Mashrabov - kafedra assistenti, G. Qodirova - kafedra assistenti, I. Mamasoliev - kafedra assistenti, A. Xudoyqulov- kafedra assistenti, O. Po‘latov - kafedra assistenti, K. Roziqova - kafedra assistenti, M. Kubaeva- kafedra assistenti, T. G‘oziev - kafedra assistenti, X.Xursanov - kafedra assistenti, L.Sonamyan - kafedra laboranti, M. G‘ulomova- kabinet mudirasi hamda kunduzgi bo‘limning kafedrada malakaviy bitiruv ishi bajargan 76 nafar bitiruvchisi.

Kun tartibi:

Kunduzgi bo‘lim bitiruvchisi Meliboeva Nasiba Tohirjonovnaning «CHuchuk qalampir kasalliklari va ularga qarshi kurash tadbirlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi.

So‘zga chiqdi:

Kafedra mudiri, professor F.Hoshimov O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTV ning 9.06.2010 yil 225 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Oliy o‘quv yurtlari bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishi» to‘g‘risidagi nizomiga asosan har bir malakaviy bitiruv ishi kafedrada muhokama qilingandan keyin DAK himoyasiga tavsiya etilishi kerakligini aytib o‘tdi. Kafedramizda kunduzgi bo‘lim bitiruvchisi Meliboeva Nasiba Tohirjonovnaning «CHuchuk qalampir kasalliklari va ularga qarshi kurash tadbirlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini eshitamiz.

SHundan so‘ng Meliboeva Nasiba Tohirjonovnaning o‘z malakaviy bitiruv ishi mavzusini dolzarbligini, ahamiyatini, ilmiy yangiligini, olingan natijalarni va qilingan xulosalarni ma’ruza qildi.

Ma’ruzachiga mavzu yuzasidan 4 ta savol berildi, u berilgan savollarga javob berdi.

Muhokamada F.Hoshimov, P. Uzoqov, T. Ortiqov, AE.Umurzoqov, S. Ahmedov va B. Abdullaevlar ishtirok etdilar.

QAROR QILINDI:

Kunduzgi bo‘lim bitiruvchisi Meliboeva Nasiba Tohirjonovnaning «CHuchuk qalampir kasalliklari va ularga qarshi kurash tadbirlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha DAK talablariga javob berishi inobatga olinib, u DAK da himoya qilish uchun tavsiya etilsin.

Majlis raisi, professor

F.Hoshimov

Kotiba

M.G‘ulomova

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
1.1. Ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning tarkibi va ularning o'simlik kasalliklarining infeksiyasi manbai bo'lib xizmat kilishi.....	6
1.2. Qishloq xo'jalik ekinlarida fuzarioz kasalligini o'rganish holati.....	11
1.3 O'simliklarga zaharli ta'sir qiluvchi zamburug'lar.....	15
1.4 Qishloq xo'jaligi ekinlarida kasallik qo'zg'atuvchi fuzarioz kasalligiga qarshi kurash choralari.....	18
II- FUZARIOZ KASALLIGI KELIB CHIQISHI VA ZARAR KELTIRISHINI ANIQLASH USULLAR.....	21
2.1. Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning miqdorini aniqlash usuli.....	21
2.2. Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekinlarining fuzarioz kasalligi bilan zararlanganligini hisobini olish usuli.....	21
2.3. Pomidor, bolgar qalampiri va baqlajondagi fuzarioz kasalligining zararini aniqlash usuli.....	23
2.4. Fuzarioz zamburug'larini pomidor, bolgar qalampiri, baqlajon va begona o'tlarning turli a'zolaridan sof holda namlangan kamerasi usulida ajratib olish.....	23
2.5. Fuzarioz zamburug'larini tuproqdan ajratib olish usuli	25
2.6. Fuzarioz zamburug'larini patogenlik xususiyatini aniqlash usuli.....	26
2.7 Fuzarioz zamburug'larining fitotoksin hosil qilish xususiyatini aniqlash usuli.....	26
2.8. Fuzarioz zamburug'lari bilan pomidor, bolgar qalampiri, baqlajon va begona o'tlarni sun'iy zararlash usullari.....	27
III-BOB SABZAVOT EKIN DALALARIDAGI BEGONA O'TLARDAGI FUZARIOZ KASALLIGI INFEKSIYASINING TO'PLANISHI VA SAQLANISHI.....	28
3.1. Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekinlarining fuzarioz kasalligi.....	28
3.2. Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning fuzarioz bilan kasallanishi	33
3.3. Pomidor, bolgar qalampiri va baqlajonning fuzarioz bilan kasallanishida begona o'tlarning roli.....	39
3.4. Sabzavot ekinlarining fuzarioz kasalligiga qarshi kurash choralari.....	44
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	48

KIRISH

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat (Karimov, 2009).

O'zbekiston Respublikasi jahon iqtisodiy inqirozidan chiqish davrida barcha yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini jahon bozori talablariga javob beradigan darajada sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishini taqozo etadi. Endilikda qishloq xo'jaligining barcha sohalarida islohotlar o'tkazilib, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, aholi jon boshiga yetarli miqdorda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va iste'mol qilish bo'yicha eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish respublikada olib borilayotgan agrar siyosatning negizi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida, - qishloq xo'jaligi - Respublika iqtisodiyotining eng ko'lamli, hal qiluvchi bo'g'ini bo'lib, Respublikaning taqdiri ko'p jihatdan shu sohaning qanday rivojlanishiga bog'liq, - deb ko'rsatib, qishloq xo'jaligining taqdiri, demakki, eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy muammolarimizning hal etilishi, pirovard natijada, mamlakatimiz oziq-ovqat ta'minoti xavfsizligi bu boradagi ishlarning ko'lami va samaradorligi bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tgan.

Sabzavotchilik O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining eng qadimgi va serdaromad sohalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlari o'zining ta'mi va foydaliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Sabzavotlar insonning normal ovqatlanishi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar assortimenti o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular tarkibida organizm uchun zarur bo'lgan moddalardan karbon suvlar (kraxmal, qand, yog', oqsil) mavjuddir. Sabzavotlarda vitaminlarni ko'p bo'lishi ular qimmatini yanada oshiradi.

Vitaminlardan tashqari sabzavotlar inson organizmi uchun zarur bo'lgan temir tuzlari, fosfor, kalsiy kabi elementlarga ham boydir.

Aholini bu mahsulotlar bilan yil davomida uzluksiz ta'minlash uchun ularning hosildorligini oshirish zarur. Hosildorlikni oshirish omillaridan biri ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampirda keng tarqalgan zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi samarali kurash choralarini izlab topishdan iborat.

Fuzarioz O'zbekistan Respublikasi sharoitida ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampirning hosildorligini pasayishida muhim rol o'ynaydigan kasalliklardan biridir. Fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug' tuproq fitopatogeni bo'lib, uzoq muddat tuproqda saprofit holda yashab, virulentlik xususiyatini yuqotmaydi, bu esa unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, u faqat bitta navni emas, turkumga hatto bitta oilaga kiruvchi o'simliklarni kasallantirish xususiyatiga ham ega. Ekin dalalarida uchraydigan va ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekini bilan turkum yoki oilaga kiruvchi begona o'tlar asosiy qishloq xo'jalik o'simligini kasallantirgan fuzarioz zamburug'i bilan zararlanishi mumkin. Fuzarioz kasalligining tarqalishida infeksiya manbalari muhim ahamiyatga egadir. Bu holat ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampir ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarni infeksiya manbai sifatida qanday o'rin tutishini o'rganishni taqazo etadi.

Qishloq xo'jalik ekinlarining fuzarioz kasalligi yildan yilga keng tarqalib o'simliklarni himoya qilish sohasining eng muhim muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu kasallik tufayli har yili qishloq xo'jaligida 5-30% gacha hosil yuqotiladi (Peresypkin, 1989). Fuzarioz kasalligi bilan kelgusi vegetasiya yilida o'simliklarning kasallanishida infeksiya manbalarining ahamiyati juda ham kattadir. Chunki infeksiya manbalarida kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar maxsus a'zolar hosil qilib, noqulay sharoit davrida saqlanib qoladilar.

Mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yuzaga kelishi bilan ular, ya'ni infeksiya manbalari, o'simlik qoldiqlari, tuproq, ypyg' va begona o'tlar orqali kasallanmagan o'simliklarni zararlaydilar. Qishloq xo'jalik ekinlarini fuzarioz kasalligiga qarshi kurash choralarini amalga oshirishda infeksiya manbalarini o'z vaqtida yo'qotish alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, bu borada

infeksiya manbalaridan biri - begona o'tlarni ekin dalalarida tarqalishini o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish o'ziga xos ahamiyatga egadir

1. ADABIYOTLAR SHARHI

1.1. Ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning tarkibi va ularning o'simlik kasalliklarining infeksiyasi manbai bo'lib xizmat qilishi

Qishloq xo'jalik ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etib, hosildorlikni sezilarli darajada pasaytirishi bilan bir qatorda, kasalliklarni infeksiya manbai ekanligini nazarda to'tib, ilmiy adabiyotlar tahlilini shu asosida olib bordik. O'zbekistonda uchraydigan begona o'tlarni bir qator tadqiqotchilar o'rganganlar. Begona o'tlarni, birinchi bo'lib L.I.Kozakevich, klassifikatsiyasini bergan bo'lsa, A.I.Malsev taklif etgan klassifikatsiya eng maqbuli deb topilgan. Lekin bulardan tashqari ham bir qator olimlar begona o'tlarning klassifikatsiyasini tavsiya etishgan (Djangurazov, Sheraliyev, 1986). O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning tarkibini o'rganishga bir qator tadqiqotlar bag'ishlangan (Korovin, 1934; Allanazarova, 1969; Xudayqulov, 1972; Djangurazov, Loy 1975; Abdullayev, 1975; Xalilova, 1975; Djangurazov, Sobirov, 1978; Djangurazov, Jo'raqulov, 1979; Sabirov, 1986, Galimova, 1986; Djangurazov, Sheraliyev, 1986). U.Allanazarova, (1967, 1969) Qashqadaryo havzasidagi lalmi yerlardagi begona o'tlarni o'rganish mobaynida 39 oila, 182 turkumga mansub 283 tur o'simliklarni aniqlagan. Begona o'tlar orasidan 35 turga mansub o'simlik dalalarda (15-50% gacha) uchrashi kuzatilgan. Bir yillik begona o'tlar 176 turi (62.2%), ikki yillik esa 18 turi (31.4%) tashkil qilgan. Muallif tomonidan lalmi yerlarda begona o'tlarni ma'lum bir ekinga moslashganlari kuzatilmagan. Begona o'tlarga qarshi agrotexnik, kimyoviy kurash choralarini birgalikda amalga oshirish hamda almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish samarali natija berishi ta'kidlanadi. O'zbekiston sharoitida sholi dalalarida begona o'tlarning tarqalishi S.M.Xudoyqulov (1972) tomonidan o'rganilgan. Sholi dalalaridan 65 oila, 211 turkumga kiruvchi o'simliklarning 390 turi aniqlangan. Bu begona o'tlarning tarqalishi va dalaga kirib kelish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

V.A.Burugin va F.X.Djangurazovlarning (1975) ta'kidlashicha, O'zbekistonning sug'oriladigan ekin maydonlarida 72 oila 375 turkum, 841 turga kiruvchi begona o'tlar aniqlangan. Shundan 519 ta turi bir yillik, 322 turi esa ko'p yillik o'simliklardir. Begona o'tlarning asosiy qismini qoqio'tdoshlar (117 tur), g'alladoshlar (109 tur), dukkakdoshlar (74 tur), karamdoshlar (63 tur) va kampirchopondoshlar (20 tur) oilasiga kiruvchi o'simliklar tashkil qilgan. Ular ichida turlar soni bo'yicha bir yillik begona o'tlar ko'proq uchrasa ham, lekin zarari jihatidan ko'p yillik o'simliklar ustunlikka ega bo'lgan. Surxondaryo viloyatining g'o'za dalalarini tadqiq qilish davomida, N.P.Loy, (1969), F.X. Djangurazov va N.P.Loy (1975) tomonidan 56 turga kiruvchi begona o'tlar ajratib olingan. Shundan 60% i bir va ikki yillik o'simliklar bo'lib, 40% ini ko'p yillik begona o'tlar tashkil qilgan. Mualliflarning fikricha, g'o'za dalalarida begona o'tlarning ko'payishiga agrotexnik tadbirlarning buzilishi va sug'orish inshootlarining tashlandiq holga kelib qolganligidir. Xorazm viloyatida makkajo'xori ekilgan dalalarda olib borilgan tekshirish ishlari natijasida, 16 oilaga kiruvchi begona o'tlarning 44 ta turi ajratib olingan. Shulardan eng ko'pi g'alladoshlar (12 tur) va qoqio'tdoshlar (6 tur) oilasiga kiruvchi o'simlik turlari ajratib olingan.

Ko'p yillik begona o'tlarning 12 ta turi kuzatilgan. Makkajo'xori ekin dalalari qarovsiz bo'lganligi tufayli begona o'tlar bilan ifloslanish darajasi yuqori ekanligi ta'kidlanadi (Abdullayev, 1975). M.X.Xalilova (1975) tomonidan Toshkent viloyatining g'alla ekin dalalarida tadqiqot ishlari olib borilganda 19 oila, 82 turkum, 183 turga mansub begona o'tlar aniqlangan.

Turlar soniga ko'ra, birinchi o'rinni qoqio'tdoshlar, undan keyin g'alladoshlar, sho'radoshlar, dukkakdoshlar, ituzumdoshlar, kampirchopondoshlar, bo'tguldoshlar, sigirkuyrukdoshlar, chinniguldoshlar egallagan. Muallifning fikricha begona o'tlarga qarshi faqat agrotexnik tadbirlar emas, balki kimyoviy preparatlarni ham qo'llash kerak.

Jizzax viloyatining yangi o'zlashtirilgan yerlaridagi g'o'za dalalarida begona o'tlarning tarqalishini o'rganish davomida birinchi yili 14-18 taturga mansub,

ikkinchi yili 24-26 ta tur, uchinchi - beshinchi yili 34-38 ta turga kiruvchi, asosan, bir yillik begona o'tlarni uchrashi aniqlangan. G'o'za dalalaridan 72 ta turga kiruvchi begona o'tlar ajratib olingan (Djangurazov, Jo'raqulov va boshqalar, 1979; Jo'raqulov va boshqalar, 1980).

Tadqiqotchilarning fikricha bunday dalalarda agrotexnik tadbirlarning buzilishi begona o'tlarning ko'payib ketishiga sababchi bo'lgan.

B.Z.Sobirov (1986) Jizzax viloyati sharoitida beda ekilgan lalmi yerlarda begona o'tlarning tarqalishini o'rganish davrida 20 ta oila, 50 ta turkum, 52 ta turga mansub o'simliklarni aniqlagan. Bir-ikki yillik begona o'tlardan 38 ta tur, ya'ni 73.1%, ko'p yilliklardan 14 ta tur (26.9%) ajratilgan. Beda dalalarida rivojlanishning dastlabki davrida bir yillik begona o'tlar o'sish va rivojlanishda bedadan o'tib ketadilar. Iyun oyining boshlaridan esa ko'p yillik begona o'tlarning jadal o'sishi kuzatilgan. Natijada, bu davrda beda dalalarida turli tuman begona o'tlar kuzatilgan va ular ypyg' hosil qilgan. Ko'p hollarda begona o'tlar bedaga nisbatan yaxshi o'sganligi bedaning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi kuzatilgan. Bu davrda begona o'tlarning miqdori ko'p va tur tarkibi ham boy bo'lishi anikdangan.

Sirdaryo viloyatining sug'oriladigan yerlaridan makkajo'xori ekilgan dalalardagi begona o'tlar tarkibi tekshirilganda, 18 ta oilaga kiruvchi 76 ta turga tegishli o'simliklar ajratib olingan (Galimova, 1986).

G'alladoshlardan 14 tur, qoqio'tdoshlardan - 10, bo'tgullilardan - 6, dukkakdoshlardan - 4, qolgan oila vakillaridan 2-3 tadan tur aniqlangan.

Ko'p yillik begona o'tlardan 18 ta tur, bir yilliklardan 40 ta turga mansub o'simlik ajratilgan.

F.X.Djangurazov va A.Sh.Sheraliyev (1986) Surxondaryo viloyati xo'jaliklaridagi bog' hamda tokzorlarda begona o'tlarning tarqalishini tadqiq qilib, 219 turga kiruvchi o'simliklarni aniqlaganlar. Shundan 141 turi bir yillik, 78 turi ko'p yillik. Begona o'tlarning uchrashi 1-4 ball bo'lgan. Bog va tokzorlarni begona o't bosib ketishiga sabab, bu yerlarda agrotexnik tadbirlar yaxshi o'tkazilmaganligidadir, degan xulosaga kelingan.

Begona o'tlar turli qishloq xo'jalik ekinlarida kasallik qo'zg'atuvchi tuproq patogenlarining infeksiyasi manbai ekanligini bu borada tadqiqot o'tkazgan mualliflar ta'kidlab o'tganlar (Sheraliyev, 1983).

G'o'za ekin dalalaridagi tuproq zamburug'larining propagulalari bilan zararlanishiga yoki ularning tuproqdagi miqdorini ortishiga vertisillyoz vilt bilan kasallangan begona o'tlar va ularning qoldiqlari sababchi bo'ladi. Viltga moyil begona o'tlar qatoriga yantoq (*Alhagi kirghisorum* Schrenk), olabuta (*Atriplex tatarica* L.), bo'ztikan (*Sonchus oleraceus* L.), qo'ytikan (*Xanthium strumarium* L.), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.), marmarak (*Salvia sclarea* L.), ixroj (*Euphorbia serawschanica* L.), tugmachagul (*Malva mauritana* L.), mushuk o't (*Psylliostachys P. leptostachya* (Boiss.), Roshk.in.Fl.), machin (*Amaranthus* L., *A.albus* L.), sho'ra (*Chenopodium album* L.) va boshqalar, umuman 10 tadan ko'p oilaga mansub, 23 tadan ko'proq turlarga mansub begona o'tlardir. I.M.Azimjanov va S.S.Ramazonova (1971) o'z tadqiqotlarida Toshkent va Sirdaryo viloyatlari xo'jaliklarining g'o'za, kartoshka, pomidor, bolg'ar qalampiri va boshqa ekinlar o'stirilgan dalalardan olingan begona o'tlarning mikologik tekshirish natijalarini keltirganlar. Begona o'tlardan *Sorghum helepense* L., *Amaranthus retreflexus* L., *Solanum nigrum* L., *Chenopodium album* L., *Artemisia annua* L., *A.vulgaris* L., *Barbaria arcuata* Rehb., *Cirsium ochrolepidium* Fuz., *Convolvulus arvensis* L., *Xanthium strumarium* L., *Datura stramonium* L. kabilarni mikologik tekshirish natijasida *Verticillium dahliae* Nees., *V.lateritium* va *V.erticilbium* sp. zamburug'larini sof holda ajratib olingan.

G'o'za dalalaridan olingan begona o'tlardan *V.dahliae*, kartoshka va pomidor dalalaridagi begona o'tlardan esa *Verticillium* sp. zamburug'i ajratilgan. Mualliflarning fikricha, oxirgi yillarda juda ko'p o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi *Verticillium* turkumiga tegishli zamburug'lar bilan kasallanishi mumkin bo'lgan o'simlik turlarining soni ko'payib bormoqda.

G'o'zaning yana bir kasalligi qora ildiz chirishi ham infeksiya manbalaridan biri begona o'tlar ekanligi isbotlangan. Ayniqsa, dalalarda keng tarqalgan salomalaykum (*Cyperus rotundus* L.), ajriq (*Cynodon dactylon* (L.) Pers),

(*Amaranthus blitum* L. sp. pi.), qora kurmak (shamak) (*E. Crus-galli* L.), R. etsch va sutlama (*Euphorbia* L.) kabi begona o'tlar qora ildiz chirishi bilan zararlanishi ko'rsatib o'tilgan. Kasallikka chalinishga moyil o'simlik turlari yuztaga yaqinligi va ularning asosiy qismi begona o'tlar ekanligi aniqlangan.

G'o'zaning fuzarioz kasalligining manbalari qatoriga *Fusarium oxysporum* f. *vasinfectum* bilan zararlanishiga moyil ekin turlari hamda fuzariozga chidamli, ammo parazitga o'z ildizlaridan boshpana beruvchi begona o'tlar ham kiradi degan fikrlar mualliflar tomonidan ilgari surilgan (Klimova, Chadova, 1967). A.Sheraliyev (1983) O'zbekiston sharoitida tut ko'chati yetishtiriladigan maydonlarda fuzarioz vilti infeksiyasining to'planishida begona o'tlarning rolini tekshirish mobaynida shirisa, g'umay va durman o'simliklaridan ko'proq *Fusarium heterosporum*, *F.moniliforme*, *F.solani*, *F.javanicum* zamburug' turlarini ajratib olgan.

Muallif yuqoridagi begona o'tlar tutning fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi fuzarioz zamburug'ining infeksiya manbai ekanligini tajriba yo'li bilan aniqlagan.

Yuqoridagi sharhlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sharoitida faqat g'o'za va tut kasalliklarini o'rganish davomida bu kasalliklarning infeksiya manbalaridan biri begona o'tlar ekanligi aniqlangan. Lekin bu borada boshqa ekinlar, xususan, sabzavot ekinlari va shu ekin dalalaridagi begona o'tlar ustida hech qanday ilmiy ishlar olib borilmagan. Demak, tadqiqot uchun tanlangan mavzu juda dam dolzarb ekanligi bir bor yana o'z isbotini topdi.

1.2. Qishloq xo'jalik ekinlarida fuzarioz kasalligini o'rganish holati

Fusarium turkumiga kiruvchi zamburug'lar 400 dan ortiq turdagi o'simliklarda kasallik qo'zg'atadilar (Rayllo, 1950). Kasallik ekinlarning hosil sifati va miqdorining kamayishiga sababchi bo'lib qolmasdan, balki ko'pincha o'simliklarning zararlangan mevasi zaharli xususiyatiga ham sabab bo'ladi. *Fusarium* turkumining ko'pchilik vakillari saprotrof zamburug'lar bo'lib, ular o'simliklarning ildizini, urug'ini kasallantirishi, mevasini chiritishi, o'sishini sekinlashtirishi, o'tkazuvchi to'qimalarini zararlab so'lishiga sabab bo'ladi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, *Fusarium* zamburug'ining ayrim turlari keltirib

chikaradigan o'simlik kasalliklari yildan yilga ortib bormokda. Fusarium oxysporum 150 tur o'simliklarni, F.moniliforme - 50 turni, F.solani - 50 turni, F.javenaceum - 30 turni, F.culmorum - 20 turni, F.sporotrichiella - 20 turni, F.graminearum - 20 turni, F.nivale - 15-20 turni, F.sambucinum - 18 turni, F.lateritium - 15 turni, turkumning qolgan vakillari esa 5-10 tadan turga kiruvchi jami 405 ta o'simliklarni kasallantiradilar (Bilay, 1977).

Fuzarioz kasalligini Ukrainada V.I.Tishchenko, N.M.Maslakova ; Turkmanistonda Ye.N.Koshkelova va boshqalar ; Qozog'istonda G.N. Kuzmina; Tojikistonda M.Ya.Menlikiyev va boshqalar har xil qishloq xo'jalik o'simliklarida ancha mukammal ilmiy ishlar olib borganlar va yaxshigina natijaga erishganlar (Bilay, 1977).

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini kamaytiruvchi omillardan biri fuzarioz kasalligidir. Ilmiy adabiyotlar bilan tanishish davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, respublikamiz olimlari tomonidan bir qator qishloq xo'jalik ekinlarining fuzarioz kasalligi o'rganilgan (Solovyeva, Poyarkova, 1945; Avtanomov, 1959 a , 1959 6 ; Solovyeva, 1964; Ubaydullayev, 1969; Gafurov, 1972; Pessova, 1974; Gubanov, Sabirov, 1977, Qarayev, 1967; Sheraliyev, 1983; Pessov, 1987, 1990; Raximov, Xakimov, 2000).

Fuzarioz kasalligi ingichka tolali g'o'zaning asosiy kasalliklaridan biri hisoblanadi. Kasallikning eng katta zarari chigitdan unib chiqqan ko'chatlarning nobud bo'lishida kuzatiladi. O'sish davrining o'rtalarida zararlangan g'o'za o'simligining ko'sak hosil qilishi 73% ga, har bir ko'sak og'irligi 50% ga kamayadi. O'sish davrining oxirlarida kasallangan o'simliklar ko'saklarining mikdori 3,8% ga, ko'sakdagi tola mikdori 32% ga kamayadi.

O'zbekiston sharoitida g'o'zaning fuzarioz kasalligi qo'zg'atuvchisining uchta shtammi borligi aniqlangan. Kasallik keltirib chiqaruvchi zamburug' tuproqda zararlangan o'simlik qoldiqlarida xlamidosporalar hosil qilib saqlanadi (Solovyeva, 1964).

Fuzarioz kasalligining qo'zg'atuvchisi g'o'zaga tuproqdan ildizning shikastlangan qismidan va hatto shikastlanmagan ildiz orqali ham kirib borishi

kuzatilgan. Chunki, kasallikning qo'zg'atuvchisi o'zidan ildizning qoplovchi to'qimasini yemiruvchi izofermentlar ajratishi isbotlangan (Gubanov, Sabirov, 1977). X.Ubaydullayev (1969) bedaning fuzarioz kasalligini o'rganish davomida kasallikni qo'zg'atuvchisi *Fusarium oxysporum* Schlecht Snyd et Hans.var *medicaginis* ekanligini va beda tupining zararlanishi 4.8 - 18% gacha, poyasining zararlanishi esa 1,8 - 16,4% gacha bo'lishini aniqlagan hamda kasallikning yil davomida o'rimdan o'ringacha ortib borishini kuzatgan. Kasallangan beda tuplarida poyalar soni 54,7-66,4% gacha kamayadi, uning o'sishi va rivojlanishi sekinlashib, poya balandligi 20-32 sm ga, og'irligi 62,6-72,2% ga, ko'k massasi, ildiz sistemasi, tuganak bakteriyalar soni kamayadi. Bedaning fuzarioz kasalligi ozuqa massasining sifatiga ham ta'sir qilib, oqsilning kamayishiga, ya'ni ko'k massada 13,7-14,3% gacha, xashakda 11,8-12,5% gacha moyini - 0,88% ga, uglevodni 4,2-3,9% ga kamaytirgan. Fuzarioz kasalligi bedaning barcha yer ustki a'zolarida kuzatiladi va ular infeksiya manbai bo'lib xizmat qiladilar, lekin zararlangan a'zolaridan ajratilgan *F.oxysporum* var. *medicaginis* zamburug'ining patogenlik xususiyati bir xil emasligi aniqlangan.

Poliz ekinlaridan qovoqdoshlar oilasiga kiruvchi qovun va tarvuz o'simliklar fuzarioz kasalligi bilan kasallanganda, ularning bo'g'in oralig'ining qisqarganligi, gul hosil qilmaganligidan mevasining yo'qligi aniqlangan (Pessova, 1974). A.Sheraliyev (1983) tomonidan tutning fuzarioz kasalligini O'zbekiston sharoitida o'rgangan. Uning bergan ma'lumotiga ko'ra, respublika bo'ylab o'tkazilgan kuzatishlar va mikologik tekshirishlar natijasida fuzarioz zamburug'ining 10 turga va 13 ta tur xillari tutni kasallantiradi. Bu zamburug'lar kasallangan tut daraxtining bargidan, novdasidan, ildizidan va urug'idan ajratib olingan. Tekshirishlar tufayli tutdan *Fusarium solani*, *F. lateritium*, *F. oxysporum*, *F. gibbosum* turlari bilan kasallanganligi aniqlangan va unda namoyon bo'lgan kasallik Andijon viloyatidagi Hojiobod ipakchilik davlat xo'jaligida urug'dan ekilgan, payvandlangan va ko'p yillik tut daraxtlarining 10-35% fuzarioz bilan kasallantirgan. Toshkent viloyatining Sebzor tutxonasida bu ko'rsatkich 34% ga teng bo'lgan.

Samarqand ipakchilik davlat xo'jaligida 25-46 %, Buxoro ipakchilik davlat xo'jaligida 18-35%, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 25-37%, Urganch ipakchilik xo'jaligida 30-54 %, To'rtko'l tutxonasida 17-47 % ga teng bo'lgan.

Muallifning ko'rsatishicha, respublikaning barcha viloyatlarida *Fusarium lateritium*, *F. solani*, *F. javanicum*, *F.heterosporum*, *F.moniliforme* turlari uchragan. *F.avenaceum*, *F.semitectum*, *F.culmorum*, *F.graminearum* turlari esa ayrim xo'jaliklardagina uchragan. Tut daraxtining kasallanishida *Fusarium zamburug'*ining ayrim turlari, ba'zan esa 2-3 ta turi ishtirok etishi ko'rsatib o'tilgan.

Bu turlar ichida eng ko'p uchraydiganiga *F.solani*, *F.moniliforme*, *F.avenaceum*, *F.graminearum*, *F. sporotrichiella* turlari misol qilib berilgan.

Pessov G.V. (1990) O'zbekiston sharoitida tomatdoshlar oilasiga kiruvchi sabzavot ekinlarining fuzarioz kasalligini o'rgangan. Tadqiqotchi pomidor, bolgar qalampiri va baqlajonning fuzarioz kasalligini o'rganish davomida pomidorni bu kasallik bilan 37-69%, bolgar qalampirini 25-30%, baqlajonni esa 24-52 % zararlanishini kuzatgan. Kasallanish darajasi 1 ballda hosilning yo'qotilishi 12-13,2% bo'lgan bo'lsa, 2 ballda -23.3-23.5%, 3 ballda - 40.2-42.0 %, 4 ballda - 73.9 - 75.7 % hosilning nobud bo'lishini aniqlagan.

O'zbekistondagi issiqxonalar sharoitida fuzariozni baqlajonda -*Fusarium oxysporum* Schl.f.sp. *melongenae* Matuo et- elshigami; bolgar qalampirida - *F.oxysporum* Schl. f.sp. *lycopersici* (Sacc.) Snyder et Nansen, *F.solani* (Mart.) App. et Wr., *F.moniliforme* Sheld., *F.gibbosum* App. et Wr. emend Bilai. zamburug' turlari qo'zg'atishini isbotlagan. Muallif kasallikni, asosan, *F.oxysporum* f.sp. *lycopersici* qo'zg'atadi, lekin *F.solani*, *F. moniliforme* va *F.gibbosum* turlari kasallik patogenezida ikkinchi darajali ahamiyatga egadir degan fikrni bildiradi. Sheraliyev A. (1995) O'zbekistonda pomidor o'simligidagi fuzarioz kasalligining tarqalishini o'rganish davrida bu kasallik tufayli hosildorlik yirik mevalarda 15,03% ga, o'rtacha mevalarda 20% ga, mayda mevalarda esa 17.5% ga pasayishini kuzatgan. Respublika sharoitida pomidor o'simligining fuzarioz kasalligi bilan kasallanishida *F.oxysporum*, *F.moniliforme*, *F.solani* var.

argillaceum, F.heterosporum, F.gibbosum, F.sambucinum, F.lateritium, F.moniliforme var. lactis turlari va tur xillari qatnashishini aniqlagan. Adabiy manbalarni tahlil qilish jarayonida sabzavot ekiilarini fuzarioz kasalligining infeksiya manbai bo'lgan begona o'tlarning tarkibi va bu kasallikning kechishida ularning tutgan o'rni o'rganilmaganligi ayon bo'ldi.

1.3. O'simliklarga zaharli ta'sir qiluvchi zamburug'lar

Zamburug'lar o'zining rivojlanishi davomida o'simliklarga zaharli ta'sir qiluvchi turli xil metabolitlar hosil qiladi. Bu metabolitlar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Fenol moddalarining ortiqcha miqdori o'simliklarda kasallikni yuzaga keltirishiga sabab bo'lishini tadqiqotchilar o'z tajribalari yordamida aniqlaganlar (Gubanov, Sabirov, 1977).

Fusarium turkumiga mansub ko'pgina shtammlarning fitotoksinlari javdar, suli va arpaning o'sishi davrida ta'sir qilishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu shtammlarning ozuqa muhiti tarkibida hosil qilgan mahsulotlari filtrlab olinib, har xil sharoitlarda tekshirib ko'rilgan. Ba'zi zamburug' shtammlari o'stirilgan filtrlangan suyuqlik javdarning tez o'sishiga salbiy ta'sir qilsa, boshqalari esa arpaning o'sishiga xuddi shu tarzda ta'sir qiladi (Bilay, 1977).

Turli xil tuproqlarni tekshirish davomida toksin ajratadigan zamburug' turlari kulrang tuproqli, chim kulrang tuproqdi, bo'z, qo'ng'ir o'rmon tuprog'ida va qo'ng'ir tayga tuproqlarda eng ko'p miqdorda bo'lishini aniqlagan. Eng yuqori miqdorda toksin ajratadigan shtammlar Penicillium turkumiga (30%) to'g'ri kelgan. Biroz kamroq, miqdorda Aspergillus (22%) turkumiga, qolgan toksin ajratadigan shtammlarning 12% i esa Takomillashmagan zamburug'larning boshqa turlariga mansub bo'lgan. Bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, (Gubanov, 1972; Borodin, Runov, 1966; Sheraliyev, 1995) fitopatogen zamburug'lar toksinlari o'simlikning kimyoviy tarkibiga jiddiy o'zgarish kiritadi, plastik materiallar sinteziga va zararlangan o'simlikning boshqa fiziologik jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Saprofit zamburug' turlarining toksinlari ozuqa muhiti uchun kurashda ularning o'z ustunligini ta'minlaydi (Gorlenko, 1975). S.A.Asqarova, S.Kasimova (1977) *Rhizoctonia solani* dan ajratilgan toksin moddalarning o'simliklarga ta'sir qilish mexanizmini o'rgangan.

Muallifning ta'kidlashicha, toksin moddalari o'simlikning o'sish davrida ildiz hujayralari ichiga kirib to'plangan, lekin o'simlik poyasida esa bu xildagi moddalar aniqlanmagan. O.A.Beresteskiy (1978) chim - kuchsiz kul rang tuproqlarda mikroskopik zamburug'larning fitotoksin moddalar hosil qilish qobiliyatini o'rganishgan. Ularning ta'kidlashiga ko'ra ko'pchilik mikroskopik zamburug'lar o'sish davrida fitotoksin moddalar hosil qiladi, bular bevosita tuproqda to'planadi va ma'lum muddat davomida saqlanadi. A.Sh.Sheraliyev (1977) *Fusarium* zamburug'ining tut urug'i va ba'zi bir oraliq ekinlarning urug'lariga fitotoksin ta'sirini o'rgangan. Muallif tut daraxtidan ajratilgan 9 ta *Fusarium* turiga kiruvchi 30 shtammning toksin hosil qilishini o'rgangan. Test-obyekt sifatida olingan tut, mosh, g'o'za, soya va makkajo'xori urug'lari fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'larning filtrlangan yetti kunlik ozuqa suyuqligida ivitilgan.

F.lateritium, *F.solani*, *F.heterosporum*, *F.javanicum*, *F. moniliforme*, *F.oxysporum* larning filtrlangan ozuqa suyuqliklari yuqorida sanab o'tilgan urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir qilgan.

M.A.Zuparov (1984) tutzordagi tuproqlardan ajratilgan 32 tur zamburug'larning fitotoksin hosil qilish xususiyatini o'rgangan. Test-obyekt sifatida olingan tut, g'o'za va bug'doy urug'lari zamburug'larning filtrlangan yetti kunlik ozuqa suyuqligida ivitilgan. O'rganilgan zamburug' turlari test-obyektlarga har xil darajada ta'sir etgan, ba'zilari esa, hatto urug'larning o'sishini tezlashtirgan. *F.solani*, *F.solani* var. *arngillaceum*, *F.moniliforme*, *F.javanicum*, *F.lateritium*, *F.oxysporum*, *Verticillium dahliae*, *Aspergillus niger*, *Penicillium urticae*, *Stachybotrys alternans*, *Dendrohium toxicum*, *Curvularia intermedia* zamburug'larining filtrlangan suyuqligi urug'larga ko'proq salbiy ta'sir

ko'rsatgan. O'rganilgan zamburug'larning qolgan turlari esa test-obyektlarga kuchsiz ta'sir qilgan.

M.S.Mamiyev (1997) Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproqlaridan ajratilgan zamburug'laridan 2 ta turkum, 6 ta turga mansub bo'lgan 16 ta shtammlarning fitotoksin xususiyatini o'rganish uchun ajratib olgan. Test-o'simlik sifatida bug'doy, makkajo'xori va g'o'za o'simliklarining urug'laridan foydalangan. Zamburug'larning yetti kunlik filtrlangan suyuqligida urug'lar ivitilganda, ular bu o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Tekshirilgan zamburug'larning deyarli ko'pchiligi fitotoksin hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, ayrim shtammlar (*Aspergillus niger*, *A. flavus*) urug'larning o'sishi va rivojlanishini tezlashtirsa, ba'zilari (*F.javanicum*, *F.moniliforme*) aksincha ularning o'sishini sekinlashtirgan.

Shunday qilib, o'simliklarning nobud bo'lishiga zaharli fitotoksin moddalarning katta guruhiga kiruvchi har xil birikmalari sabab bo'lar ekan. Bu moddalarning ta'sirida o'simlikda so'lish jarayoni sodir bo'ladi.

Fitopatogen zamburug'larda moddalar almashinuvini tadqiqot qilish yuksak o'simliklar kasalliklarining patogenezini va kasallikka bardoshlilikini o'rganishda katta ahamiyatga ega. *Fusarium* turkumi vakillari tuproqda hayot kechiradigan fakultativ fitoparazitlar qatoriga kiradi, ularning hosil qilgan metabolitlari ekinzorlardagi tuproqda kasallangan o'simlik qoldiqlari orqali to'planishiga sabab bo'ladi. Bu moddalar suvda eruvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun o'simliklarning mevasiga to'planib, ular iste'mol qilinganda insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1.4. Qishloq xo'jaligi ekinlarida kasallik qo'zg'atuvchi fuzarioz kasalligiga qarshi kurash choralari

Qishloq xo'jalik ekinlarining fuzarioz kasalligiga qarshi respublika sharoitida qo'llaniladigan kurash choralari ekinlar turiga qarab agrotexnik, biologik va kimyoviy usullarni qo'llashga qaratilgan.

Surxondaryo viloyatining tajriba stansiyasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ikki yil davomida beda ekilgan dalalarga ingichka tolali g'o'za navlari ekilganda, fuzarioz kasalligi 4.3 -4.8 marotaba kamaygan, paxta hosildorligi esa 5-11 s/ga ga oshgan.

G'o'za ekilgan dalalarga go'ng va uning kompostini solish tuproqda fuzarioz kasalligi antagonistlarining ko'payishiga va hosildorlikning oshishiga olib kelgan. G'o'za ekilgan dalalarga chirigan go'ngni solish, boshqa tajriba variantlariga nisbatan fuzarioz zamburug'larining patogen turlari 1,4-2,8 marotaba hosildorlikni 3-7 s/ga ga oshirgan (Qarayev, 1967).

Ingichka tolali g'o'za navlarini fuzarioz kasalligiga chidamliligi, kasallikka beriluvchan navlarga nisbatan, ularda zaxiradagi uglevodlarni parchalaydigan gidrolitik jarayonlarni susaytiruvchi modda almashinishiga nisbatan qarshiligi yuqori bo'lishidadir, degan fikrni ilgari suradilar. Kasallikka nisbatan chidamli navlarga 9877-I, 9732-I, Ashxabod-25 kabi ingichka tolali g'o'zalarni kiritadi (Gubanov, Sabirov, 1977). Bedaning fuzarioz kasalligiga nisbatan chidamli deb Dalvarzin 2 va 425 navlari ko'rsatilgan. Bahorda ekilgan beda, yozda ekilganlariga nisbatan kamroq kasallikka chalinishi kuzatilgan va ko'chatlarni saklanib qolishi 94.7-95.4% ni tashkil qilgan. Har yili beda ekilgan dalalarga mineral o'g'itlardan

K_2O - 300 kg/ga va R_2O_5 -150 kg/ga solish fuzarioz kasalligini 1.7 -2 marta kamaytirgan. Bedaning fuzarioz kasalligiga qarshi ekiladigan urug'ni TMTD kimyoviy preparati bilan dorilash yaxshi natija berishini ko'rsatib o'ttan (Ubaydullayev, 1969).

Tutning fuzarioz kasalligiga qarshi, urug'ni ekishdan oldin (uzgen, olgin) fungusidlar bilan dorilanganda tajriba variantida 88.5% ko'chatlar soni saqlanib, kasal o'simliklar 5-10% ni tashkil qilgan, nazoratda bu ko'rsatkich muvofiq ravishda 64.2% va 25-36% ga teng bo'lgan (Sheraliyev, 1989).

Tutning fuzarioz kasalligiga qarshi, urug' bilan birgalikda tuproqda *Trichoderma lignorum* (shtamm 2398) biologik preparatini solish har gektar yerdan olinadigan ko'chatlar sonini 100-135 mingga yetkazib, kasal o'simliklarni 2,8 marotaba kamayishiga olib kelgan. Tuproqqa *Aspergillus terreus*, *Penicillium notatum*, *Trichothecium roseum* zamburug'larini urug' ekishdan oldin solish ham tutning fuzarioz kasalligiga qarshi yaxshi natija beradi degan xulosaga kelgan (Zuparov, 1984).

Qovundagi fuzarioz kasalligiga qarshi antagonist – zamburug'larni qo'llash ham yaxshi natija bergan (Klenova, Pessov, 1985). Kasallikka qarshi antagonist - zamburug'larning 282, 298 va 300 shtammlari bilan qovun urug'iga ishlov berilganda, texnik samaradorligi 35-37% ni tashkil qilgan va hosildorligi ham nazoratga nisbatan yuqori bo'lgan. Shu shtammlarni tuproqda solishganda ham ijobiy natijalar bergan. Ularning texnik samaradorligi 33.7-33.8 % ga teng bo'lib, hosildorligi nazoratga qaraganda ancha baland bo'lgan. G.V.Pessov (1987) pomidorning fuzarioz kasalligiga qarshi chidamli navlarni ekishni tavsiya etadi. Buning uchun o'z tajribalari yordamida sinab ko'rgan *Fusarium oxysporum* f.sp. *lycopersici* ning 1-shtammiga nisbatan chidamli bo'lgan pomidorning *F.pimpinellifolium* Mo ass. 160 tizimini fuzarioz kasalligiga nisbatan chidamli navlarini yaratishda foydalanish uchun tavsiya etadi.

Respublikamiz sharoitida Qishloq xo'jalik ekinlarining fuzarioz kasalligiga qarshi tavsiya etilgan kurash choralari bilan tanishish davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, sabzavot ekinlaridan shirin qalampirning kasalligiga qarshi kurash choralari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniksa, kasallikka qarshi kurash choralari ishlab chiqishda bir qator omillar bilan birgalikda fuzarioz kasalligining kelib chiqishida qatnashgan turlar tarkibi, tarqalishi, patogenlik xususiyatlarini roli o'rganilmagan.

Olingan natijalar ekinzorlardagi fitosanitariya holatining yaxshilanishiga eng muhimi insonlarga ekologik sof oziq – ovqat mahsulotlarini yetishtirib berishga xizmat qiladi.

2. Qalampir biologiyasi, ekish usullari, oziqlanish maydoni va tup qalinligi

Tropik sharoitda qalampir ko'p yillik, mo'tadil va subtropik sharoitlarda bir yillik o'simlik. Qalampirlar (achchiq, shirin) – issiqsevar, o'suv davri (o'simlik ko'kargandan mevalari pishguncha) – 120-160 kun. Qulay harorat 18-25⁰C bo'lib, 11-13⁰C haroratda o'simliklar o'sishdan to'xtaydi va -0,5-1⁰C sovuqdan nobud bo'ladi

Haroratning 30⁰C dan yuqori bo'lishi o'simlikning o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shirin qalampirning nisbatan issiqqa chidamli. Urug'lari juda sekin, 8-12 kunda unib chiqadi. Shirin qalampirning yorug'sevar, qisqa kun o'simligi. Tuproq namligiga talabchan. Shuning uchun tuproqdan namning 70-80 % bo'lishini talab etadi. Nam yetishmasa gul va mevalari to'kiladi, mevalarining tovar sifati pasayadi.

Achchiq, etli mevalari bilan xarakterlanadigan yovvoyi tropik qalampirlaridan kelib chiqqan. Madaniylashtirish jarayonida qalampir mevalari yiriklashib, tarkibidagi achchiq modda (kapsiasin) kamayib borgan. Shimolga tarqala borgan sari mo'tadil harorat va havoning nisbiy namligi oshib, yangi xil shirin qalampirlar paydo bo'lgan. Bulardan esa yirik, etli, qo'sh jinsli hozirgi shirin qalampirlar kelib chiqqan. Janubiy rayonlarda qalampirlarni madaniylashtirish natijasida mevalari yiriklashib bordi, lekin ular eti yuqqaligicha va tarkibida kapsiasin yuqoriligicha qolaveradi.

Yer tanlash. Tuproq unumdorligiga talabchan. Shuning uchun oziq moddalarga boy, mexanik tarkibi yengil qumoq, sho'rlanmagan barcha tuproqlar yaroqli.

Almashlab ekishdagi o'rni. Ildizmevali ekinlar, piyoz, poliz ekinlari, karam eng yaxshi o'tmishdosh

Yerni ekishga tayyorlash. Pomidor bilan bir xil bo'lib, xuddi shunday mashina va qurollar yordamida amalga oshiriladi. Ko'chatlar oldindan olib qo'yilgan, sug'orilgan jo'yaklarga ekiladi.

Kuzda PN-4-35, PYa-3-35, PD-4-35 markali pluglar T-4A traktoriga taqilib tuproq 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bahorda ChKU-4-1 chizel-kultivatorlarda 10-12 sm chuqurlikda va BETS-0,1 markali boronalar yordamida (5-6 sm da) ishlanadi. Zarur bo'lsa KZU-0,3 markali

planirovshik bilan yer tekislanadi. So'ngra ko'chat o'tqazish uchun jo'yaklar olinadi.

Ekish muddati va usuli. 4-5 bargli ko'chatlar aprel ikkinchi yarmidan 10 maygacha qator orasi 60, 70 va 90 sm qilib, o'simliklar orasi 25-40 sm qilib o'tkaziladi.

2.1. Shirin qalampirning O'zbekistonda ekish uchun tavsiya etilgan navlarining ta'rifi.

Dar Tashkenta.

O'zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida Kolokolchik va Moldova 118 navlarini o'zaro chatishtirish usuli bilan yaratilgan. Muallif : Ermolova E. V.

1980 yilda Davlat Reestriga kiritilgan. O'rtapishar nav. Tupi yig'iq, o'rtacha kattalikda, shtambli. Bargi ko'p yashil rangda. Meva shakli konussimon, o'rtacha kattalikda, texnik pishganda rangi sarg'ish, biologik pishgach, qizil. Meva yuzasi notekis, biroz qabariqli, ayrim joylari borgan. Eti sersuv qalinligi 5 mm, urug'xonalari 3 – 4 ta.

Hosildorlik 1998 – 2000 yillarda Buxoro nav sinash shaxobchasida 21 – 23 t. Namangan va Andijon nav sinash shaxobchasida 22 – 34 t. Chinoz nav sinash shaxobchasida 21 – 33 t , Samarqand nav sinash stansiyasida 9 – 10 t ni tashkil etadi. Meva vazni 62 – 80 t, ta'mi 4.5 ball. Quruq modda miqdori 5.0 – 7.0% O'suv davri meva texnik pishib yetilguncha 114 – 115 kun.

Ayrim belgilari: konserva sanoatida qayta ishlanadi.

Zarya Vostoka

O'zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida issiqqa chidamli 9 A liniyasini Moldovski beliy liniyasi bilan o'zaro chatishtirish usuli bilan yaratilgan.

Muallif : Ermolova E. V.

1994 yilda Davlat Reestriga respublikaning barcha viloyatlari bo'yicha kiritilgan. O'rtapishar nav.

Tupining balandligi o'rtacha 44 – 52 sm, bargi och yashil, o'rtacha kattalikda, meva shakli konussimon, urug'xonalari 3 – 4 ta, meva yuzasi silliq, kam seziluvchan qabariqli. Texnik pishganda meva sut rangida, biologik pishgach qizil. Etining qalinligi 5 mm, sersuv.

Hosildorlik 1998 – 2000 yillarda Buxoro nav sinash shaxobchasida 17 – 19 t. Namangan va Andijon nav sinash shaxobchasida 22 – 24 t. Chinoz nav sinash shaxobchasida 17 – 38 t , Samarqand nav sinash stansiyasida 8 – 10 t ni tashkil etadi. Meva vazni 50 – 100 t, ta'mi 5.0 ball. Quruq modda miqdori 4.2 – 6.8 %. O'suv davri meva biologik pishib etilguncha 145– 150 kun.

Ayrim belgilari: konserva sanoatida qayta ishlashga yaroqli.

Zumrad

O'zbekiston sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida Kaliforniya Vonder populyasiyasidan yakka tanlov usuli bilan yaratilgan.

Muallif : Ermolova E. V.

1992 yilda Davlat Reestriga Andijon viloyati bo'yicha kiritilgan. Kechpishar nav.

Tupi shtambli, balandligi 74 – 76 sm barglari ko'p, yashil rangda, o'rtacha kattalikda. Meva shakli prizmasimon, yuzasi silliq, biroz segmentlashgan. Texnik pishganda rangi sariq, biologik pishgach qizil.

Hosildorlik 1998 – 2000 yillarda Buxoro va Chinoz nav sinash shaxobchalarida gektaridan 19 – 20 t, Namangan nav sinash shaxobchasida 33 – 35 t , Samarqand Davlat nav sinash stansiyasida 10 – 11 t ni tashkil etadi. Meva vazni 60 – 121 t, ta'mi , 4.5 ball. Quruq modda miqdori 5.5 – 7.8 %. O'suv davri meva biologik pishib etilguncha 160 kun.

Ayrim belgilari: konserva sanoatida qayta ishlashga uchun yaratilgan.

Lastochka

Moldova dehqonchilik va sabzavotchilik ilmiy tadqiqot institutida Moldova 118 navidan yakka tanlov usuli bilan yaratilgan.

Mualliflar: Il'enko T.S., Zaginayyu N.N., Xarkova A.P.

1975 yilda Davlat Reestriga Andijon viloyati bo'yicha kiritilgan. Tupi yarim yopiq, shtambli, serbarg mevasi dona – dona tugiladi. Meva shakli

konussimon, o'rtacha kattalikda, texnik pishib yetilganda qizil. Eti sersuv, ma'zasi shirin. Hosildorlik gektaridan 27 – 28 t, meva vazni 41 – 55 g, ta'mi 5.0 ball. Quruq modda miqdori 5.9 %. O'suv davri meva biologik pishib yetilguncha 152 kun.

Ayrim belgilari: konserva sanoatida qayta ishlanadi.

1.4. Shirin qalampirni ekish muddatlari va joylashtirish tartibini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar yakuni.

Aholini yangi sabzavotlar bilan ta'minlashni yaxshilashda sabzavotlar turini kengaytirishda shirin qalampir alohida o'rin tutadi.

Shirin qalampir oziq – ovqatlik, parhezlik qiymati, shifobaxsh xususiyati yuqori bo'lib, texnik pishgan mevasi 100 – 300 mg/%, biologik pishgan mevasida esa 400 – 800 mg / % gacha C vitamin, 50 mg / % ga rutin, 70 – 380 mg / % pektin moddalar, 0.5 – 0.16 mg / % karotin saqlaydi.

Shirin qalampir yetishtirish texnologiyasining muhim elementi bo'lib ekish muddati va sxemasi hisoblanadi.

Moldovada shirin qalampir may oyida 70 + 50 x 15 sm, 60 + 40 x 15 sm, Shimoliy Kavkazda 70 – 50 x 15, Qirg'izistonda may boshida 70 x 20 – 25 sm, O'zbekistonda V.I.Zuyev, A.A.Umarov, O/Qodirxo'jayevlar ta'kidlashicha janubda 15 – 20 aprelda, markaziy hududlarda 20 – 30 aprelda, shimoliy mintaqada 1 – 10 aprelda 70 x 30 sm sxemada ekiladi.

Toshkent viloyati "Xaskovo" xo'jaligida bizning shirin qalampir Bolgarskiy 79, Dar Toshkenta navlarini 5,15,25 aprel, 5,15 maylarda 70x 40, 70 x 35, 70 x 30, 70 x 25, 70 x 20, 90 x 31, 90 x 27, 90 x 23, 90 x 19, 60+30/2 x 23 sm sxemalarda o'rganish asosida qo'yidagi xulosalarga keldik.

- Shirin qalampir aprelning birinchi yarmida o'tqazilganda o'suv davri salqin haroratda kechib, harorat uzoq davom etadi. Natijada o'simlikda baquvvat yer ustki qismi shakllanib ko'p mevalar hosil bo'ladi.
- Eng ko'p hosildorlik 5 – 15 aprelda ekilganda qayd etiladi. Shunda meva sifati yuqori bo'lib, ko'p vitaminlar quruq modda va shakar saqlaydi.
- Eng yuqori hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik 90 x 27, 90 x 23 va 70 x 25 sm sxemalarda olinadi.

3. FUZARIOZ KASALLIGI KELIB CHIQISHI VA ZARAR KELTSIRISHINI ANIQLASH USULLAR

3.1. Ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning miqdorini aniqlash usuli

Begona o'tlarning hisobini olishda A.Jo'raqulov va boshq., (1985) taklif etgan usuldan foydalaniladi. Shunga ko'ra, bir yillik begona o'tlarning tarqalishini har bir namunada 1 m² maydondan hisobi olinadi. Bunday namunalar tekshirish olib borilayotgan dalaning bir necha yeridan diagonal bo'ylab yig'iladi. Dala diagonal bo'ylab 4 qismga bo'lindi, har bir qismdan diagonal asosida uchta yeridan bir yillik begona o'tlar uchun 1m² maydonchadagi, ko'p yilliklar uchun esa 10 m²maydonchadagi miqdor hisobga olinadi.

Ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampirning ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning tarqalishi 5 ballik sistema bo'yicha baholanadi.

Bunga ko'ra o'tlarning dalada tarqalishi ko'z bilan chamalashga asoslanadi.

1. sxemaga asoslangan holda

1-JADVAL

Begona o't bilan ifloslanish darajasining ball bilan ifodalanishi	Begona o't bilan qoplanganligi, % hisobida	Begona o't bilan ifloslanish darajasi
1	0-10	Juda kam
2	10-30	Kam
3	30-70	O'rtacha
4	70-100	Kuchli
5	100 dan yuqori	Juda kuchli

3.2. Ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampir ekinlarining fuzarioz kasalligi bilan zararlanganligini hisobini olish usuli

Shirin qalampir ekinining nihollarini fuzarioz bilan zararlanganligini ikki juft barg hosil qilgandan boshlab hisobga olinadi (Chumakov va boshq., 1990).

Buning uchun har bir qatorning 0,25 m masofasidan 10 ta namuna olinadi. Namunaga olingan pomidor, bolgar qalampiri, baqlajon o'simliklarini quyidagi shkala asosida guruhlarga ajratildi:

0 - sog' o'simlik;

1 - o'simlik kuchsiz zararlangan, ya'ni urug' barglarida va ildizlarida qo'ng'ir dog'lar kuzatiladi;

2 - o'simlikning zararlanishi o'rtacha, ya'ni ildiz bug'izini ingichkalashish belgilari kuzatiladi;

3 - o'simlik kuchli zararlangan, ya'ni ildiz bo'g'izining yarmi ingichkalashgan;

4 – nihol qurib qolgan.

Shirin qalampirni fuzarioz kasalligi bilan zararlanganligining hisobini olishni vegetasiya davrida o'simlikning gullash davridan boshlab, mevalarni hosil qilishigacha va kasallikning rivojlanishini eng yuqori chuqqisiga chiqqan vaqtgacha davom ettiriladi.

Buning uchun 50 gektargacha bo'lgan ekin maydonlaridan 20 ta namuna olinadi. Agar ekin maydoni 50 gektardan katta bo'lsa, har gektar qo'shimcha maydondan yana ikkitadan namuna olinadi. Namunalarning har biridan 10 tadan o'simlik olinadi. Sabzavot ekinlaridagi fuzarioz kasalligining rivojlanish darajasini, ya'ni sifat o'zgarishlari quyidagi shkala asosida, ballar yordamida ifodalanadi:

0 - sog'lom o'simlik;

1 - o'simlikning ayrim novdalarida va 25% barglarida kasallik belgilari bor;

2 - o'simlikning ayrim novdalarida kasallik belgilari yaqqol ko'zga tashlanadi, 26-50% gacha barglarida kasallik belgilari bor;

3 - o'simlik kasallik tufayli rivojlanmagan, hosili deyarli yo'k, barglariniig 50% dan ortiq qismi zararlangan;

4 - o'simlik butunlay qurib qolgan.

3.3. Shirin qalampirdagi fuzarioz

kasalligining zararini aniqlash usuli

Shirin qalampirning fuzarioz kasalligi tufayli hosildorligining kamayishi quyidagi ko'rsatkichlar: mevalar soni va og'irligining kamayishi miqdoriga qarab aniqlanadi. Tekshirilgan namunalarda o'simliklar soni 10 ta tupdan kam bo'lmasligi kerak. Namunalardagi sog'lom va kasallangan o'simliklardagi mevalar sonining hisobi olinadi. Shundan so'ng sog'lom va kasallangan o'simliklardagi mevalarning o'rtacha soni orasidagi farkni % bilan ifodalanishi kasalning zararini ko'rsatadi, u quyidagi formula asosida topiladi (Chumakov, Zaxarova, 1990)

$$V = 100(A - a) / A$$

bunda:

V - hosilning yo'qotilishi, % hisobida;

A- sog'lom o'simliklarning hosili;

a - kasal o'simliklarning hosili.

Kasallik zararining koeffitsiyenti quyidagi formula asosida topiladi:

$$K_{13} = (100 - U_b) : B$$

bunda,

K₁₃ - kasallik zararining koeffitsiyenti;

U_b — nazoratga nisbatan kasal o'simliklarning hosili, % hisobida;

B - kasallikning namoyon bo'lishi ball yoki % hisobida

3.4. Fuzarioz zamburug'larini shirin qalampir va begona o'tlarning turli a'zolaridan sof holda namlangan kamerasi usulida ajratib olish

Fuzarioz zamburug'larini sabzavot ekinlari va begona o'tlarning turli a'zolaridan ajratib olish uchun eng avvalo o'simliklarning bu a'zolarini boshqa mikroorganizmlardan tozalash zarur (Bilay, 1977). Buning uchun tekshirilayotgan o'simlikning a'zolarini sirtqi qismi sterilizasiya qilish uchun tekshirilayotgan o'simlik a'zosini 1:1000 marta suyultirilgan sulema eritmasiga 1-2 daqiqa solib turiladi va uni eritmadan olib bir necha sekund spirtli eritmada tutib turiladi. So'ngra suvda yoki 50% li spirtida yaxshilab yuviladi hamda sterillangan suvda yana qayta yuviladi.

Sterilizasiya qilishda formalinni 1:300 marta suyultirilgan eritmasidan ham foydalaniladi. Bu eritmada o'simlik a'zosi 30 daqiqa botirilib, keyin 2 soat davomida uning bug'ida dimlanadi. Sterilizasiya qilish uchun bromli suvning 0.1-1% li eritmasidan ham foydalanish mumkin. Eritmaga o'simlik a'zosi bir necha sekund solinadi so'ngra suv bilan yaxshilab yuvib tashlanadi. Bundan tashqari, o'simlik a'zolarini sterillash uchun 3% li vodorod peroksidan yoki 2% li kaliy permanganat eritmasidan ham foydalanish mumkin. Bu eritmalarga o'simlik a'zolari 1-5 daqiqa botirib olinib, so'ngra sterillangan suv bilan yaxshilab yuvib tashlanadi.

Yuqoridagi usullar bilan sterilizasiya qilingan o'simlik a'zolari zamburug'ni sof holda ajratib olish uchun Petri likobchasi hosil qilingan namlik kamerasi joylashtiriladi (Bilay, 1977).

Buning uchun Petri likobchasining tubiga filtr qog'ozini joylashtirib, uni +120°S harorat 1 atm. bosimda 20 daqiqa davomida avtoklavda sterilizasiya qilinadi. Filtr qog'ozli Petri likobchalari alanga oldida sterillangan suv bilan namlanadi va alangada qizdirib olingan skalpel yordamida o'simlik a'zolari 1-3 sm kattalikda qirqib olinadi hamda har bir likobchaga 4-6 tadan qilib terib chiqiladi.

Qirqilgan o'simlik a'zolari joylashtirilgan Petri likobchalari 24-26°S haroratli termostatlarga qo'yilib, 3-kundan boshlab kuzatiladi va bo'lakchalar sirtida hosil bo'lgan zamburug' miseliylari yoki sporalari probirkalardagi qiya agarli ozuqa muhiti sirtiga ekiladi. Zamburug'larni o'stirish uchun ozuqa muhit sifatida agarli suslodan foydalaniladi (Bilay, 1977). Ozuqa muhitlarda bakteriyalarning o'sishini oldini olish uchun limon kislotasi solib, uning rN muhitini 4.5-5 ga keltiriladi. Zamburug' ekilgan probirkalar 24-26°S haroratga ega bo'lgan termostatlarga o'stirish uchun qo'yiladi.

3.5. Fuzarioz zamburug'larini tuproqdan ajratib olish usuli

Tuproqdan fuzarioz zamburug'larini ajratib olish uchun mikrobiologiya va mikologiyada qabul qilingan usul asosida o'tkaziladi (Bilay, 1977). Fuzarioz zamburug'larining tuproqdagi miqdorini aniqlash uchun 10 g tuproqni 90 ml sterilizasiya qilingan kolbachaga suv solib 5 daqiqa davomida tuproq eritiladi. Sterillangan pipetka yordamida 1 ml suspenziya 9 ml sterillangan probirkadagi suvga solinadi. Bu jarayon yana qaytariladi. Uchinchi va to'rtinchi probirkadagi suyuqlik Petri likobchalardagi ozuqa muhitiga 1:1000, 1:10000 nisbatda ekiladi. Buning uchun 0.5 ml olingan suspenziya Petri likobchasiga solingan agarli ozuqa muhiti yuziga shpatel yordamida bir tekis qilib yoyiladi. Bu jarayon uch marta takrorlanadi. Undan tashqari, zamburug'larni ajratish uchun tuproqning mayda zarrachalarini Petri likobchalaridagi agarli ozuqa muhiti yuzasiga bir tekis qilib sepiladi. 3-7 kundan keyin tuproq bo'laklari atrofida har xil zamburug'lar koloniyasi paydo bo'ladi. Unib chiqqan zamburug'lar mikologik ilgak vositasida probirkadagi agarli ozuqa muhitiga ekiladi. So'ngra 1 g absolyut quruq, tuproq namunasidan bir vaqtning o'zida tajriba uchun olingan tuproq bilan birga 1 g tuproqni tarozida tortib quritib qo'yiladi. 1 g tuproqdagi zamburug'larning miqdorini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$a=b*v*g/d$$

a - 1 g quruq tuproqdagi zamburug' miqdori, dona hisobida;

b -Petri likobchasidagi o'rtacha koloniyalar miqdori, dona hisobida;

v-ekilgan suyuqlik miqdori, ml hisobida;

d - 1 ml suspenziyaning miqdori, tomchi hisobida;

d-tekshirish uchun olingan quruq tuproq og'irligi, g hisobida.

Ekilgan Petri likobchalar 3-kundan boshlab, vaqti-vaqti bilan tekshirilib turilib, unib chiqqan zamburug' koloniyalari agarli ozuqa solingan probirkalarga ekib olinadi. Kuzatish 15 kun davom etadi. Zamburug' miqdorini aniqlash uchun ma'lum miqdorda suyultirilgan, ya'ni Petri likobchalarida koloniyalar soni 20 dan 100 tagacha bo'lgan namunalar tanlab olinadi. Bunda har bir koloniya shartli ravishda spora yoki giflar bo'lagidan hosil bo'lgan deb hisoblanadi. Har bir koloniyadagi zamburug' qiya qilib qotirilgan agarli ozuqa muhiti solingan probirkalarga ekiladi. Fuzarioz zamburug'larining turlarini aniqlashda V.I. Bilay (1977) ning klassifikasiyasidan va VIII tomlik «Flora gribov Uzbekistana» (1978-1997) kitobidan foydalaniladi.

3.6. Fuzarioz zamburug'lariniig patogenlik xususiyatini aniklash

usuli

Fuzarioz kasalligini qo'zg'atuvchi zamburug'ni kartoshkadan tayyorlangan suyuq ozuqa muhitida, 28°S haroratda o'stiriladi. 15 kundan so'ng suyuq ozuqamuhiti filtrlanib ikki baravar suyultiriladi. Fuzariozzamburug'larining patogenlik xususiyatlarini tekshirish uchun shirin qalampirning ko'chatlarining ildizlari 1 soat davomida botirib qo'yiladi. Nazorat sifatida oddiy suvga ildizlari botirilgan ko'chatlar olinadi. Zararlangan ko'chatlar tuprog'i sterillangan tuvaklarga ekiladi. Ko'chatlarning belgilariga qarab ularni kasallikka beriluvchanligi aniqlanadi (Fadeyev, 1979).

3.7 Fuzarioz zamburug'larining fitotoksin hosil qilish

xususiyatini aniqlash usuli

Ajratib olingan fuzarioz zamburug'larini fitotoksin hosil qilish xususiyatini aniqlashda o'simlik urug'larining o'sish xususiyatiga qarab, ya'ni bioproba usulidan foydalaniladi (Bilay, 1977; Beresteskiy, 1973).

Fuzarioz zamburug'larini fitotoksin hosil qilish xususiyatini o'rganish uchun qishlok xo'jalik ekinlarining urug'lari olinadi. Bu urug'lar fuzarioz zamburug'i turlari o'stirilgan filtrlangan suyuq, ozuqada 24 soat davomida ivitilib, undan so'ng tubiga filtr qog'ozi yoyilgan Petri likobchasidagi nam kameraga joylashtiriladi. Petri likobchalari 5-7 kun davomida termostatda 25-27°S da urug'lar unishi uchun saqlanadi, so'ngra o'sgan urug'larning ildiz va poyalarining uzunligi o'lchanadi. Fuzarioz zamburug'lari hosil qilgan fitotoksinlarning urug'larga ta'sirini o'rganish 10-15 kun davomida olib boriladi. Fitotoksin hosil qiluvchi turlar va namunalar qatoriga nazoratga nisbatan urug'larning unish qobiliyati 30% ga pasaytirgan tur va shtammlar kiritiladi.

3.8. Fuzarioz zamburug'lari bilan shirin qalampir va begona o'tlarni sun'iy zararlash usullari

Shirin qalampir yetishtirilgan dalalarda uchraydigan begona o'tlarni fuzarioz zamburug'lari bilan sun'iy usulda zararlash uchun aniqlangan zamburug'larni laboratoriya sharoitida ko'paytiriladi. Buning uchun ozuqa sifatida kolbalarga bug'doy doni, suv bilan birga (1:1 nisbatda) solinib, avtoklavda 1 atm. bosimda 1 soat davomida sterilizasiya qilinadi. So'ngra bu kolbalarda fuzarioz zamburug'larining kerakli turlari 10-15 kun davomida vaqti-vaqti bilan aralashtirib turgan holda o'stiriladi. Tajriba o'tkaziladigan dalaga erta bahorda har 100 m² maydonga 3-4 kg hisobida zararlangan bug'doy doni solinadi (Chumakov, Zaxarova, 1990).

Tadqiqot qilinayotgan o'simliklarni fuzarioz zamburug'lar bilan zararlashning ikkinchi usuli, ularning urug'larini sun'iy zararlashdir.

Buning uchun fuzarioz zamburug'larining kerakli turlari suyuq ozuqa muhitida susloda 10-15 kun davomida o'stiriladi va o'simliklarning urug'i ekilishidan oldin zamburug' o'stirilgan suyuqlikka 1-2 soat davomida ivitilib zararlanadi (Dudka, 1982).

IV. SABZAVOT EKIN DALALARIDAGI BEGONA O'TLARDAGI FUZARIOZ KASALLIGI INFEKSIYASINING TO'PLANISHI VA SAQLANISHI

Begona o'tlar qishloq xo'jalik ekinlarining turli xil kasal-liklarini tarqalishida va ularning infeksiyasini saqlanishida asosiy rol o'ynaydi degan fikrni bir qator olimlar ta'kidlab o'tganlar (Malsev, 1962; Azimjonov, Ramazonova, 1971; Sheraliyev 1983).

4.1. Ituzumdoshlar oilasiga mansub Shirin qalampir ekinining fuzarioz kasalligi

3.1.1. Nihollarning fuzarioz kasalligi Tuproq yuzasiga chiqqan nihollarning ildiz bo'g'zi ingichkalashib qo'ng'ir, so'ngra qora tus oladi ("qora oyoq" kasalligi), nihollar bujmayib, nobud bo'ladi. Qo'zg'atuvchi zararlangan nihol atrofidagi o'simliklarga ham o'tadi va kasallikning o'choqlari paydo bo'ladi. Bu holat ayniqsa issiqxonalarda tez-tez uchraydi. Kechroq zararlangan nihollar halok bo'lmaydi, ammo ildiz bo'g'zi ingichkalashadi va to'q tus oladi, ildizlari yaxshi rivojlanmaydi, ko'chirib ekilganda yaxshi tutib ketmaydi.

Odatda ildiz va ildiz bo'g'zi zararlanishi ko'chatlar ko'chirib ekilgan kundan boshlab 6 hafta davomida kuzatiladi. Vaqt o'tishi bilan nihollarning zamburug'larga chidamliligi kuchayib boradi va 6 haftadan keyin ko'chatlar kam hollarda zararlanadi.

Kasallikka shirin qalampirning chalinadi.

Tuproqda qo'zg'atuvchilarning propagulalari qancha ko'p bo'lsa, ob-havo faktorlari bilan bog'liq holda, zararlangan nihollar soni ham shuncha ko'p va zararlanish darajasi shuncha baland bo'ladi. Harorat past ($4-10^{\circ} S$) va namlik yuqori bo'lishi (yomg'ir, shudring), sovuq suv bilan sug'orish, ko'chatlar zich joylanishi, ko'chirib ekish o'z vaqtidan kechiktirilishi, nihollar orasida shamol yaxshi yurmasligi, tuproq ustida qatqaloq paydo bo'lishi nihol kasalliklarini kuchaytiradi.

Qo'zg'atuvchi zamburug'lar tuproqda saqlanadi. Issiqxonada har yili o'sha tuproqni ishlatish unda patogen zamburug'lar miqdori ko'payib borishiga va kasallik o'choqlari paydo bo'lishiga olib keladi.

Fusarium solani zamburug'ining belgilari. Havo miseliysi baroq yoki yupqa parda shaklli, oq, oq-pushti, oq-och-jigarrang-sariq tusli. Makrokonidiyalar havo miseliysi, pionnot va sporodoxiyalarda paydo bo'ladi, urchuq-o'roq shaklli, egilgan, ba'zan deyarli egilmagan, 4-6 hujayrali, ko'p bo'lganida och-qo'ng'ir-sariq, ko'kish-yashil, qo'ng'ir-oqish tusli, 4 hujayralilarining o'lchami 30-45x4,5-5,5 mkm, 6 hujayralilarniki 20-60x4-7 mkm.

4.2. Shirin qalampir o'simligining fuzarioz

so'lishi (fuzarioz vilt)

Zararlangan urug', urug'barg va yosh nihollar butunlay chirib ketadi.

Kasallikni gifomiset zamburug'i *Fusarium oxysporum* qo'zg'atadi. Dunyoning barcha mamlakatlarida fuzarioz vilt vertisillyoz so'lishga nisbatan juda keng tarqalgan (Fletcher, 1987).

Vilt shirin qalampirning pastki barglari, ko'pincha bir tomondan sarg'ayishi va o'simliklar so'lg'in bo'lib qolishidan boshlanadi. So'lgan barglar quriydi, biroq tushmasdan, novdalarda osilib qoladi. Novdalar ham o'simlikning bir tomonida so'lishi mumkin, keyinchalik butun o'simlik so'ladi. Zararlangan o'simliklar so'lishdan oldin zaiflashadi va bo'yi juda past bo'lib qoladi.

O'simlik so'lishining sababi – o'tkazuvchi to'qimalar zamburug' miseliysi bilan to'lib qolishi hamda o'simlik zamburug' chiqargan toksinlari bilan zaharlanishidir. Poya qiya kesilsa, o'tkazuvchi to'qimalar qo'ng'ir tus olgani – kuchli dog'lanish kuzatiladi. Vilt o'simlikning pastki qismidan yuqori yaruslarga tarqalishi bilan birga, o'tkazuvchi to'qimalardagi kuchli dog'lanish ham shu yo'nalishda, tuproq sathidan (ildiz bo'g'zidan) o'simlik tepasigacha tarqaladi (ildiz chirish bilan zararlangan o'simliklardagi dog'lar ildiz bo'g'zidan faqat 10-15 sm balandlikkacha ko'tariladi).



2-rasm. Qalampirdagi fuzarioz so'lish kasalligi

Zamburug' issiqsevar organizm, u o'simliklarni tuproq harorati 21-33°S, optimum 28°S bo'lganida kuchli zararlaydi. Ortiqcha azotli o'g'it berish kasallikni yanada kuchaytiradi. Qo'zg'atuvchi o'simlik to'qimalariga tomirlari orqali kiradi, zararlangan shirin qalampir o'simligining ildiz bo'g'zida pushti mog'or ko'rinishi mumkin. Zamburug'ning xlamidosporalari tuproqda 11 yilgacha saqlanishi, qo'zg'atuvchi urug' orqali ham o'tishi mumkin (1, 2, -rasmlar).

Fusarium oxysporum ning belgilari: Miseliy pushti, qizg'ish yoki binafsha rangli, kamroq hollarda oq yoki och-sarg'ish. Makrokonidiyalar havo miseliysida, pionnotlarda va sporodoksiylarda ozroq miqdorlarda rivojlanadi, ko'pchiligi 4, ba'zilar 5 yoki 6 hujayrali, rangsiz, urchuq yoki yoy shaklli, deyarli to'g'ri yoki biroz kamon kabi egilgan, 4 hujayralilarining o'lchami 25-40x3,2-5 mkm, 6 hujayralilariniki 30-59x3-5 mkm. Mikrokonidiyalar har doim juda ko'p miqdordashilimshiq modda bilan yopishgan soxta boshchalarda yoki bevosita

gifalarda to'p-to'p bo'lib paydo bo'ladi, ular 1 yoki 2 hujayrali, silindr, ellipsoid yoki tuxum shaklli, egilgan yoki egilmagan, o'lchami 5-15x2-4 mkm.

Xlamidosporalar ko'p miqdorda, gifa o'rtasida yoki uchida, odatda yakka holda, ba'zan zanjirchalarda rivojlanadi, dumaloq, qalin qobiqli, rangsiz, 1 yoki 2 hujayrali, diametri 3,6-7 mkm. Zamburug' sklerosiy ham hosil qiladi.

Fusarium oxysporum zamburug'ining 50 tadan ko'proq maxsus formalari mavjud bo'lib, ularning mikroskopik va makroskopik belgilari bir xil, ular faqat o'zlari moslashgan (xo'jayin) o'simlik tur va navlarini zararlay olishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarini zararlovchi formalar qatoriga quyidagilar kiradi: f.sp. apium seldereyda, f.sp. asparagus sarsabilda, f.sp. betae lavlagida, f.sp. cepae piyoz va sarimsoq turlarida, f.sp. ciceris no'xatda, f.sp. conglutinans karam, sholg'om va boshqa butguldosh ekin va o'tlarda, f.sp. coriandri kashnichda, f.sp. cucumerinum bodringda, f.sp. glycines soyada, f.sp. lycopersici pomidorda, f.sp. melongenae baqlajonda, f.sp. melonis qovun turlarida, f.sp. niveum tarvuzda, f.sp. phaseoli loviya va moshda, f.sp. pisi goroxda, f.sp. raphani turup va rediskada, f.sp. spinaciae ismaloqda va f.sp. tuberosi kartoshkada parazitlik qiladi.

Vegetasiya davrida kasallik tuproqqa ishlov berish qurollari va sug'orish suvi orqali hamda ko'chatlarni ko'chirib ekish paytida tarqaladi.

Kasallik hosilga kuchli salbiy ta'sir qiladi. O'sish davrining o'rtalarida yengil zararlangan o'simliklarning hosili 11-12 foizga pasayadi, avgust oyining boshlarida kuchli zararlangan o'simliklarning hosili butunlay yo'qotiladi. Fuzarioz vilt O'zbekistonda (va boshqa Markaziy Osiyo mamlaktlarida) juda keng tarqalgan.

4.3. Ituzumdoshlar oilasiga mansub Shirin qalampir ekin dalalarida

uchraydigan begona o'tlarning fuzarioz bilan kasallanishi

Shirin qalampir ekin dalalarida keng tarqalgan begona o'tlarni ko'zdan kechirganda, bu o'simliklarda fuzarioz kasalligiga xos bo'lgan belgilar, ya'ni pastki yarusda barg chetlarida va tomir oralarida kuyganga o'xshash dastlab

sarg'ish, keyinchalik qo'ng'ir dog'larning paydo bo'lishi, ba'zan o'simlikning guli, mevasi va barglarining to'kilishi holatlari kuzatiladi.

Bunday o'simliklar poyasidagi o'tkazuvchi to'qima naylar zamburug' metabolitlari ta'sirida uning yog'ochlik qismi qorayib nekroz hosil bo'lib qoladi.

Bir turdagi o'simlikdan 3-4 turdagi fuzarioz zamburug'i ajralib chikishi mumkin. Befarq tugmachagul, dag'al kanop, drobov otqulog'i, kallakdor echkisoqol, olabuta, sabzavot semizo'ti, chumchuqtili toron, eshak sho'ra, qo'ypechak va qo'ytikandan to'rtta tur fuzarioz zamburug'i ajralib chiqqan bo'lsa, nashtarbarg zubturum va oq chitirdan faqat 2 ta tur fuzarioz zamburug'i ajratib olingan. Qolgan begona o'tlardan esa uch turga kiruvchi fuzarioz zamburug'i ajratilgan (1, 2, 3-jadvallar).

2-JADVAL

Shirin qalampir ekin dalalarida keng tarqalgan begona o'tlarning fuzarioz bilan kasallanishi (M.A.Zuparov)

Begona o'tlar ning turlari	Begona o'tlar yig'ilgan maydonlar		Kasallangan o'simliklar
	Shirin qalampir dalasi	Dona hisobida	% hisobida
<i>Amaranthus albus</i>	+	11	55
<i>Atriplex tatarica</i>	+	12	60
<i>Bromus tectorum</i>	+	-	-
<i>Capsella bursa-pastoris</i>	+	3	15
<i>Convolvulus arvensis</i>	+	12	60
<i>Cynodon dactylon</i>	+	3	15
<i>Euclidium syriacum</i>	+	3	15
<i>Malva naclecta</i>	+	11	55
<i>Plantago major</i>	+	8	40
<i>Plantago lanceolata</i>	+	5	25
<i>Polygonum aviculare</i>	+	8	40
<i>Rumex drobovii</i>	+	9	40
<i>Sonchus olerceus</i>	-	4	20
<i>Solanum nigrum</i>	+	12	60
<i>Sisymbium loeseli</i>	+	1	45
<i>Tragopogon malicus</i>	+	4	20
<i>Tragopogon capitatus</i>	+	3	15
<i>Xanthium strumarium</i>	+	12	60
<i>Fumaria vaillantii</i>	+	3	15
<i>Chenopodium album</i>	+	4	20
Jami: 21	18	152	36,2

3-JADVAL

**Kasallik belgilari namayon bo'lgan begona o'tlardan ajrati b olingan
Fusarium turkumiga kiruvchi zambrug' turlari (M.A.Zuparov)**

zambrug' turlari	Begona o'tlarning turlari																					
	Amaranthus albus	Arriplex tatarica	Bromus tectorum	Capsella bursa-pastoris	Convolvulus arvensis	Cynodon dactylon	Euclidium syriacum	Malva nalecta	Plantago major	Plantago lanceolata	Polygonum aviculare	Potentilla reptans	Rumex drobovii	Sonchus oleraceus	Solanum nigrum	Sisymbrium loeseli	Tragopogon malicus	Tragopogon capitatus	Xanthium strumarium	Fumaria vaillatii	Chenopodium album	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	
F.gibbosum																						
F.sambucinum		+						+		+								+		+	+	
F.sambucinum var.minus		+		+		+					+			+			+					

Begona o'tlardan ajratilgan *Fusarium* turkumiga kiruvchi zamburug'larning taksonomik holati (M.A.Zuparov)

Seksiya	Tur	Variasiya
Discolor Wr.emend.Bilai	F.gibbosum App.et Wr.emend Bilai	
	F.sambucinum Fuck	
	F.sambucinum	Var.minus Wr
	F.heterosporum Nees	
Elegans (Wr) Snyder.et Hans, emend Bilai	F.oxysporum (Schlecht) Snyder.et Hans	
	F.oxysporum	Var.orthoceras (Appl.et Wr) Bilai
	F.moniliforme Sheld	
	F.moniliforme	
	F.moniliforme	Var. lactis (pir.et Rib) Bilai Var. lactis (pir.et Rib) Bilai
Martiella Wr.emend. Bilai	F.solani (Mart) App.et.Wr	
	F.solani	
	F.javanicum Koord	Var.argillaceum (Fr) Bilai
	F.javanicum	
		Var.radicicola Wr

Begona o'tlardan ajratib olingan fuzarium turlari orasidagi eng ko'p uchraydigan *Fusarium oxysporum* - 10; *F.oxysporum* var. *orthoceras*, *F.javanicum* var. *radicicola* – 6 tadan; *F.javanicum* - 5; *F.sambucinum*, *F.moniliforme*, *F.moniliforme* var. *subglutinans*, *F.solani* var. *argillaceum* – 4 tadan; *F.sambucinum* var. *minus* - 3; *F.heterosporum* – 2 ta o'simlikdan ajratib olingan.

Ituzumdoshlar oilasiga mansub shirin qalampir ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlardan ajratib olingan fuzarium turkumining vakillari uchta seksiya, yettita tur va oltita variyasiyaga tegishli bo'lishi aniqlangan (3-jadval).

Begona o'tlardan ajratib olingan bu zamburug' turlari adabiy manbalarga qaraganda turli xil qishloq xo'jalik ekinlarida kasal lik qo'zg'atishi ta'kidlab o'tilgan (Bilay, 1977).

Fuzarium turkumiga kiruvchi zamburug' turlarining asosiy qismi qishloq xo'jalik ekinlarida vilt ko'rinishidagi kasallik belgilarini yuzaga keltiradi. Fusarium oxysporum turi va variyasiyasi 150 ta o'simlik turida, F.moniliforme va F. solani - 50 ta turda, F.sambucinum - 18 ta turda, qolgan zamburug' turlari 5-10 ta o'simlik turlarida. F.oxysporum turi va variyasiyasi qishloq xo'jalik ekinlaridan tashqari donli ekinlarda ildiz, poya, boshqoq va kartoshkaning tuganaklarining chirishiga sababchi bo'ladi.

Fusarium solani esa dukkakli ekinlarning ildizi, poyasi va mevalarida chirishni yuzaga keltiradi. Shirin qalampir ekinlarining o'sish davrida va mevalarini omborxonalarda saqlash vaqtida kasallanishi ma'lum. Bu tur fuzarium zamburug'ining ba'zi turlari bilan birgalikda zarang, eman, terak, tut va boshqa daraxtlarda ham kasallik qo'zg'atadi.

Fusarium heteresporum boshqoqli o'simliklarni zararlantirishi natijasida, unda boshqa zamburug'larni rivojlanishiga sabab bo'ladi. bilan kasallanishi pomidordan kamroq, bolgar qalampiridan esa nisbatan ko'proq bo'lishi kuzatilgan.

Fuzarioz kasalligi shirin qalampirning hosildorligiga sezilarli ta'sir qilishi aniqlangan (5-jadval).

Shirin qalampirning begona o'tlarining qoldiqlari yig'ishtirib olinmagan maydonlarda fuzarioz tufayli shirin qalampirning 25,0%, hosili yo'qotilgan bo'lsa, faqat begona o'tlarning qoldiqlari yig'ishtirib olingan maydonlarda bu ko'rsatkich, shirin qalampirning 18,2% ni tashkil etgan.

O'simlik qoldiqlaridan tozalangan maydonda, ya'ni nazoratda sog'lom o'simlikka nisbatan kasallik ta'sirida hosilning kamayishi shirin qalampirning 7,7%, ga teng bo'lgan.

Fuzarioz kasalligi natijasida faqat hosildorlik emas, balki hosilning sifati ham keskin yomonlashib, kasal o'simliklardagi mevalarning nisbatan mayda bo'lishi va tovarlik xususiyatlarining pasayishi kuzatilgan.

Itzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekinlarda fuzarioz kasalligining rivojlanish dinamikasi

(M.A.Zuparov)

Tajriba variantlari	Kasallikning rivojlanishi, %							
	25.05	12.06	27.06	12.07	27.07	12.08	27.08	12.09
	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir	Shirin qalampir
Sabzavot ekinlari va begona o'tlarning qoldiqlari yig'ib olinmagan maydon	2,7	7,6	10,2	12,0	14,5	19,4	19,8	20,0
Begona o'tlarning qoldiqlari yig'ib olinmagan maydon	2,1	6,6	9,3	9,3	10,3	11,4	12,0	12,3
O'simlik qoldiqlaridan tozalangan maydon (nazorat)	-	-	-	-	-	1,4	3,2	5,9

Fuzarioz kasalligini ituzumdoshlar oilasiga mansub Shirin qalampir ekini hosildorligiga ta'siri

(M.A.Zuparov)

Tajriba variantlari	Bitta o'simlikning hosildorligi, kg hisobida		
	Bolgar qalampiri		
	Sog'lm o'simlik	Kasal o'simlik	Sog'lom o'simlikka nisbatan hosildorlikning pasayishi, % hisobida
O'simlik qoldiqlaridan tozalangan maydon (nazorat)	1,3	1,2	7,7
Sabzavot ekinlari va begona o'tlarning qoldiqlari yig'ishtirib olinmagan maydon	1,0	0,75	25,0
begona o'tlarning qoldiqlari yig'ishtirib olinmagan maydon	1,1	0,9	18,2

Shirin qalampirning sog'lom o'simliklarda mevalarning o'rtacha soni 20-26 donaga, kasal tuplarda 15-25,1 donaga yetgan.

Fuzarioz ta'sirida bir tup Shirin qalampirdan yuqotilgan mevalar soni I variantda 5 dona yoki 25%, II variantda 2,5 dona yoki 11,7% va III variantda 0,9 dona yoki 3,4% bo'lganligi aniqlangan.

Fuzarioz kasalligi natijasida har bir tupdagi mevalarning yo'qotilishi I variantda eng ko'p bo'lib, uning ko'rsatkichi 31,2% ni, mevalar soniga nisbatan kamayishi II variantda namoyon bo'lib 16,1% teng bo'lib, III variantda bu ko'rsatkich 4,5% ga yetgan. Yuqorida keltirilgan tajriba natijalaridan chiqadigan xulosa shundan iboratki, ituzumdoshlar oilasiga mansub sabzavot ekin dalalarida uchraydigan begona o'tlarning fuzarioz kasalligi tufayli bu kasallikni qo'zg'atuvchi *Fusarium* turkumiga kiruvchi zamburug' turlari o'simlik qoldiqlari bilan birgalikda tuproqda saqlanib qolishi natijasida pomidor, bolgar qalampiri va baqlajon ko'chatlari ekilganda ularning ildizlari orqali ishlov berish vaqtida o'simlik ichiga infeksiyaning kirib kelishiga imkon yaratadi.

V. Shirin qalampirning fuzarioz kasalligiga qarshi

kurash choralari

5.1. Nihollarning fuzarioz kasalligiga qarshi kurash choralari

Urug' ekishdan oldin issiqxonalardagi tuproqni dezinfeksiya qilish yoki almashtirish lozim. Unayotgan urug', urug'palla, nihol va ildiz chirish kasalliklariga qarshi kurashning eng samarali usuli tuproqni bug' yoki kimyoviy preparatlar (metilbromid, dazomet) yordamida zararsizlantirishdir. Kasallik ko'chatlarda ko'ringandan keyin fungisid qo'llash befoyda, ammo u patogenlar tarqalishi va kasallik rivojlanishini kamaytirishi mumkin.

Shirin qalampirning urug'lari past nisbiy namlik va past haroratda saqlanishi, sifatli va yuqori o'sish energiyasiga ega bo'lishi, ekishdan oldin 2 kun davomida 52 ° S va 1 kun 72°S haroratda qizdirilishi, samarali va ta'sir doirasi

keng fungisid (misol uchun, Vitavaks 200FF) yoki trixodermin (7 g/kg) bilan dorilaniishi, ko'chatlarning tagiga Terraxlor Super X fungisidining eritmasi quyilishi lozim (6-jadval). Urug'lik ekish uchun tayyorlangan tuproq (kompost)ni, barcha patogenlarga qarshi Terraxlor Super X bilan zararsizlantirish eng yuqori samara beradi.

Ko'chat o'stirish jarayonida tuproq harorati 18° S dan past va namligi keragidan ortiq bo'lmasligi lozim; agrotexnika qoidalariga to'la rioya qilish, ekinni iliq suv bilan sug'orish, kasallikka chalingan, nimjon nihollarni yagana paytida olib tashlash kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan preparatlar bo'lmasa, ko'chat ekishdan oldin tuproqni qaynoq suv yoki 1% li margansovka eritmasi bilan sug'orish lozim. Qora oyoqning o'chog'i topilsa, kasal nihollarni ehtiyotkorlik bilan olib tashlash, o'sha joyga kaliy permanganat eritmasi (10 l suvga 3-5 g KMnO₄) quyish, kamroq zararlangan ko'chatlarni ham o'sha eritma bilan sug'orish, ularning qo'shimcha ildizlari rivojlanishi uchun o'simlik tagiga 2 sm balandlikda mulcha (yuqori haroratda qizdirilgan qum yoki qum va kularalashmasini 1 kv m maydonga 100 g sarflab) solish, so'ngra bir hafta davomida sug'ormaslik lozim (Xasanov, 2010).

5.2. Shirin qalampirning fuzarioziga qarshi kurash choralari

